

**NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISH JARAYONIDA
SOHAVIY MATNLARNING O'RNI**

Askarova Mashxura Akmal qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'zbek tilini o'qitishda sohaviy matnlardan foydalanish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy yo'naltirilgan matnlarning o'qish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Sohaviy matnlarni tanlashda talabalarining kasbiy ehtiyojlari, til bilish darajasi hamda o'quv dasturi talablari inobatga olinishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada matn tanlashning autentiklik, o'qimishlilik va kasbiy yo'naltirilganlik kabi tamoyillari yoritilib, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sohaviy matnlar, o'qish kompetensiyasi, matn tanlash tamoyillari, autentik matn, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, terminologik leksika, til kompetensiyasi, o'quv materiali, talaba ehtiyojlari, integrativ yondashuv.

**РОЛЬ ТЕМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ
УЗБЕКИСТАНСКОМУ ЯЗЫКУ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОМ НАПРАВЛЕНИИ**

Аскарова Машхура Акмал кизи

Ташкентский государственный университет узбекского
языка и литературы имени Алишера Навои
2-й курс магистратуры, узбекский язык и литература

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос использования профессиональных текстов в обучении узбекскому языку студентов нефилологических направлений образования. Исследование обосновывает важность профессионально-ориентированных текстов в развитии навыков чтения и коммуникативной компетенции. Показано, что при выборе профессиональных текстов следует учитывать профессиональные потребности студентов, уровень владения языком и требования учебной программы. В статье выделены принципы отбора текстов, такие как аутентичность, грамотность и профессиональная направленность, и раскрыта их эффективность в образовательном процессе.

Ключевые слова: профессиональные тексты, читательская компетенция, принципы отбора текстов, аутентичный текст, профессионально-ориентированное образование, терминологическая лексика, языковая компетенция, учебный материал, потребности студентов, интегративный подход.

**THE ROLE OF SUBJECT-SECRET TEXTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE
UZBEKISTAN LANGUAGE IN NON-PHILOLOGICAL DIRECTIONS**

Askarova Mashkhura Akmal kizi

Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

Abstract. This article analyzes the issue of using professional texts in teaching the Uzbek language to students of non-philological educational areas. The study substantiates the importance of professionally oriented texts in the development of reading and communicative competence. It is shown that when selecting professional texts, the professional needs of students, the level of language proficiency, and the requirements of the curriculum should be taken into account. The article highlights the principles of text selection such as authenticity, literacy, and professional orientation, and reveals their effectiveness in the educational process.

Keywords: professional texts, reading competence, principles of text selection, authentic text, professionally oriented education, terminological lexicon, language competence, educational material, student needs, integrative approach.

Kirish.

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish masalasi alohida dolzarflik kasb etdi. Ayniqsa, nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun o‘zbek tilini zamonaviy yondashuv asosida o‘qitish nafaqat lingvistik savodxonlik, balki kasbiy kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarning kasbiy jarayonda til vositasida muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil etish, jamoada ishlash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyati juda muhimdir. Oliy ta‘lim tizimida kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitishning ustuvorligi kuchayib borayotgan bir paytda, talabalarda kreativ, tanqidiy, kommunikativ va kollaborativ ko‘nikmalarni shakllantirish — ta‘lim jarayonining asosiy maqsadiga aylanmoqda.

4K modelining komponentlari samarali shakllanishi uchun ta‘lim jarayonida sohaviy matnlardan foydalanish eng samarali metodlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Mazmun asosida o‘qitish (CBI) talabalarning tilni real vaziyatlar orqali o‘zlashtirishiga imkon yaratadi, shu orqali 4K modelining barcha komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Brinton tomonidan tavsiya etilgan va keyinchalik takomillashtirilgan **CBI** (Content-Based Instruction) modeli vaqt o‘tishi bilan bir qator modifikatsiyalarga ega bo‘ldi. Jumladan, Brinton va Jensen tomonidan ishlab chiqilgan adjunct modeli[1], Palli hamda Merfi va Stoller tomonidan ilgari surilgan turg‘un kontent modeli[2], Stoller tomonidan taklif etilgan mavzular asosida modernizatsiyalangan model[3] bugungi kunda nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarida til o‘qitish amaliyotida samarali qo‘llanib kelinmoqda.

Mazkur modellar tilni alohida lingvistik tizim sifatida emas, balki kasbiy va akademik mazmun bilan integratsiyada o‘rgatish imkonini beradi. Ayniqsa, adjunct modeli til o‘qitish jarayonini talabaning asosiy mutaxassislik fanlari bilan uzviy bog‘lash orqali sohaviy matnlar asosida til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu modelda tanlanadigan matnlar talabalar kelajak kasbiy faoliyatida duch keladigan real vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi zarur.

Til o‘qitishda o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dey, Bamford va Hunter tadqiqotlarida[4] o‘qish jarayoni akademik muvaffaqiyatning muhim omili sifatida baholanadi. Ularning ta‘kidlashicha, tizimli va maqsadli o‘qish nafaqat lug‘at boyligini oshiradi, balki sintaktik tuzilmalarni amaliy nutqda to‘g‘ri qo‘llash, matnni mantiqiy tahlil qilish hamda umumiy til kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur fikrlar nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini kasbiy til sifatida o‘qitish uchun ham dolzarbdir. Sohaviy matnlar orqali talaba kasbiy terminlar, rasmiy va ilmiy uslubga xos nutq birliklari, shuningdek, real kommunikativ vaziyatlarga xos til modellari bilan tanishadi. Bu esa 4K modelining asosiy komponentlari — tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.


Matn tushunchasiga berilgan ta‘riflar xilma-xil bo‘lib, tadqiqot doirasida aynan **sohaviy matn** tushunchasi muhim hisoblanadi. Sohaviy matn muayyan fan yoki kasbiy faoliyat yo‘nalishiga oid ilmiy, o‘quv yoki amaliy axborotni mujassamlashtiruvchi matnlar majmuasini anglatadi. Bunday matnlarga tibbiy, texnik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa kasbiy yo‘nalishlarga oid matnlar kiradi.

I. Baltovanning fikricha, sohaviy matnlarni faqat yozma shaklda emas, balki audiovizual materiallar bilan integratsiyada taqdim etish talabalarning mazmunni yaxlit idrok etishiga yanada samarali yordam beradi[5]. Bu holat talabalarda faqat til bilimlarini emas, balki axborotni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Dey va Robb tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qish faoliyati tilni amaliy jihatdan egallashning muhim vositasi sifatida e‘tirof etiladi. Faol o‘qish jarayoni talabalarda nafaqat o‘qish, balki tinglab tushunish, gapirish va yozish kompetensiyalarining ham parallel rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, sohaviy matnlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ularni kasbiy muloqotga tayyorlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning sohaviy ma‘lumotlarni yaxshiroq anglashida matndagi dialogik va harakatli nutq elementlari muhim rol o‘ynaydi. Bu holat til o‘qitishda real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali 4K modelining barcha komponentlarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

Sohaviy matn asosida o‘qitish o‘zbek tilida kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirishda o‘ta muhim yo‘nalish bo‘lib, u talabalarda:



Shuni ham alohida qayd etish lozimki, ayrim ommaviy manbalar sohaviy matnlarni bir yoqlama vosita sifatida talqin qilsa-da, ilmiy tadqiqotlar buni inkor etadi. Aksincha, matn asosida o‘qitish lingvistik, pragmatik, diskursiv va kommunikativ kompetensiyalarni kompleks rivojlantiradigan eng samarali metodlardan biri sifatida baholanadi.

Demak, mazmun asosida o'qitishning adjunct modeli, matn tanlash mezonlari va sohaviy matnlardan foydalanish tamoyillari o'zbek tilini nofilologik yo'nalishlarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadida o'qitishda to'liq mos keladi va yuqori samaradorlik beradi.

Sohaviy matnlardan foydalanishda, avvalo, o'quv dasturi talablari bilan bir qatorda talabalarning yoshi, kasbiy yo'nalishi va qiziqishlari hisobga olinishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda o'zbek tilini o'qitish jarayonida tanlanadigan kontent talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sohaviy matnlar tarkibi turli xil funksional va janr jihatidan rang-barang materiallarni qamrab oladi.

Nofilologik ta'lim yo'nalishlari (jumladan, tibbiyot, pedagogika, texnika va boshqa sohalar) uchun sohaviy matnlar quyidagi manbalarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ✓ sohaga oid gazeta va jurnal materiallari;
- ✓ rasmiy va norasmiy ish hujjatlari, murojaatlar va xatlar;
- ✓ kasbiy faoliyat bilan bog'liq e'lonlar va reklama matnlari;
- ✓ radio va televideniye dasturlarida qo'llaniladigan sohaviy nutq namunalari;
- ✓ sohaga doir ilmiy va o'quv matnlarining turli janrlari.

Mazkur manbalarga tayangan holda, nofilologik yo'nalish talabalari uchun o'zbek tilini o'rgatishda foydalanilishi mumkin bo'lgan sohaviy matn turlarini quyidagicha guruhlash mumkin.

Birinchidan, gazeta va jurnal materiallari. O'zbek tilidagi sohaviy maqolalarni o'qish talabalarni kasbiy yangiliklar, dolzarb muammolar va ilmiy-ommabop axborotlar bilan tanishtiradi. Bu jarayon talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, kasbiy leksikani faol o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ilmiy va o'quv matnlar. Sohaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar va metodik materiallardan foydalanish talabalarning terminologik savodxonligini oshiradi, ilmiy fikrlashni shakllantiradi hamda mutaxassislikka doir matnlarni o'zbek tilida tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, teleko'rsatuvlar va o'quv filmlar. Sohaga oid videomateriallarni tomosha qilish orqali talabalar nafaqat tinglab tushunish, balki og'zaki nutq madaniyati, muloqot etiketi va kasbiy kommunikatsiya me'yorlarini ham o'zlashtiradilar. Bu esa real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

To'rtinchidan, radio dasturlari va podkastlar. Sohaviy mavzulardagi audio materiallar talabalarning eshitib idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi, nutqdagi interferensiya holatlarini kamaytirishga va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sohaviy matnlar an'anaviy tarzda moslashtirilgan va soddalashtirilgan materiallarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Chunki ular real kasbiy muhitga yaqin bo'lib, talabalarni amaliy kommunikatsiyaga tayyorlaydi. Sohaviy matnlarni tanlashda o'zbek tilidagi autentik manbalar, multimedia ilovalari, dolzarb yangiliklar, hujjatlar va hatto video materiallar transkriptlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Florisning ta'kidlashicha, sohaviy matnlar asosida tuzilgan o'quv materiallari talabalarning kundalik va kasbiy hayotga tayyorgarligini oshiradi hamda ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi[6]. Shuningdek, Sanchis, Periks va Gomes tadqiqotlarida sohaviy matnlar til vositalaridan faol va ongli foydalanish imkonini berishi, ayniqsa kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan[7].

Sohaviy matnlarni tanlashda asosiy mezonlardan biri talabalarning lugʻaviy zaxirasi va sohaviy fanlar mazmuniga mos kontentdan foydalanishga eʼtibor beriladi. Kasbiy yoʻnalishga oid matnlarni oʻqish jarayoni zarur terminologiyani bilishni talab etadi. Talaba yetarli darajada soʻz boyligiga ega boʻlmas ekan, tilni mukammal egallashi qiyinlashadi. Shu bois lugʻaviy zaxira til kompetensiyalarining barcha turlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

Tadqiqotchilar Min va Syuy taʼkidlashicha, sohaviy matn mazmunini toʻlaqonli anglash uchun kamida 2500–3000 soʻz birligini oʻzlashtirish zarur. Ushbu fikrni Laufer ham qoʻllab-quvvatlab, tilni samarali oʻrganishda yetarli lugʻaviy zaxiraning mavjudligi asosiy shartlardan biri ekanligini qayd etadi. Mazkur qarashlarni rivojlantirgan holda, Hsueh-Chao va Nation tadqiqotlarida taʼkidlanishicha, til sohiblari maktab taʼlimini yakunlaguniga qadar taxminan 5000 ga yaqin soʻz birligini egallashi til kompetensiyasining barqaror shakllanishi uchun muhim hisoblanadi.

Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, nofilologik yoʻnalishlarda oʻzbek tilini oʻqitishda sohaviy matnlarni tanlash jarayoni talabalarning mavjud soʻz boyligini hisobga olgan holda, ularni bosqichma-bosqich yangi terminlar bilan boyitishga xizmat qilishi lozim. Bunday yondashuv nafaqat oʻqish kompetensiyasini rivojlantiradi, balki talabalarning kasbiy nutqi, mantiqiy fikrlashi hamda kommunikativ faoliyatini samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Matn tanlash tamoyillariga asoslangan holda olib borilgan tadqiqot doirasida tibbiyot taʼlim yoʻnalishi talabalari uchun sohaviy matnlar tanlab olindi. Mazkur jarayonda taklif etilgan tamoyillar Dey va Bemford tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar asosida qayta ishlanib, tibbiyot yoʻnalishi talabalarining oʻquv ehtiyojlari va kasbiy faoliyati bilan uzviy bogʻliq holda takomillashtirildi.

Shunga muvofiq, tibbiyot yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarning oʻzbek tilida oʻqish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida sohaviy matnlarning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan quyidagi tamoyillar majmuasi ishlab chiqildi va amaliyotga tavsiya etildi:

Talabaning ehtiyojlari va til tayyorgarligi darajasiga moslik tamoyili (needs analysis) — tanlanadigan matnlar talabalarning til bilish darajasi, kasbiy ehtiyojlari hamda mutaxassislikka oid qiziqishlarini hisobga olgan holda saralanishi lozim.

Sohaviy fanlar bilan integratsiyalashganlik tamoyili — matnlar tibbiyot fanlari mazmuni bilan bevosita bogʻliq boʻlib, talabaning kasbiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Matnning autentikligi tamoyili (authenticity) — oʻquv jarayonida real tibbiy muhitda qoʻllaniladigan, hayotiy vaziyatlarga asoslangan, amaliy ahamiyatga ega boʻlgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Oʻqimishlilik (readability) tamoyili — matnning grammatik tuzilishi, terminologik yuklamasi va umumiy murakkablik darajasi talabalarning idrok etish imkoniyatlariga mos boʻlishi zarur.

Kasbiy maqsadga yoʻnaltirilganlik tamoyili — tanlangan matnlar talabalarda shifokorlik faoliyatida zarur boʻladigan nutqiy va kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Matnning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi tamoyili (reliability / credibility) — sohaviy matnlar ishonchli manbalarga asoslangan boʻlib, tibbiyot sohasidagi amaldagi ilmiy va amaliy talablarni aks ettirishi kerak.

Mazkur tamoyillar asosida tanlangan sohaviy matnlar tibbiyot yoʻnalishi talabalari uchun oʻzbek tilini kasbiy maqsadlarda oʻrganish jarayonini samarali tashkil etishga, ularning oʻqish kompetensiyasi bilan bir qatorda kasbiy kommunikativ malakalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'zbek tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tanlanadigan matnlar hajman haddan tashqari katta bo'lmisligi, mazmunan esa ta'lim jarayoniga uyg'un, mavzuiy jihatdan aniq va tizimli bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sohaviy matnlar faqatgina o'quv dasturi doirasidagi mavzularni yoritish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarning til bilish darajasi, yosh xususiyatlari, kasbiy ehtiyojlari hamda dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brinton, D., Snow, M., & Wesche, M. (2003). The content-based second language instruction (2nd Ed.). Ann Arbor: The University of Michigan Press.
2. Pol Nation (1998). A bibliography of language learner literature in English. (169-218).
3. Saidova, S. (2024). NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SOHAVIY MATNLAR XUSUSIYATLARI VA MATN TANLASH TAMOYILLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(6).
4. R.R.Day, and Bamford, J. (1998). Extensive reading in the second language classroom. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Пассов Е.И. Теория методики. Иноязычное образование. Чернышов С.В., Шамов А.Н. Теория и методика обучения иностранным языкам. М.: КНОРУС, 2022.
6. S.K.Folomkina, (2005). Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе: учебно-методическое пособие. М.: Высшая школа. 2005.
7. Harmer Jeremy. Engaging Students as Learners. English Teaching Professionals, 2006.
8. S.K.Folomkina, (2005). Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе: учебно-методическое пособие. М.: Высшая школа. 2005.